(5). O.V.Hladka. Communivativ approach to forming future foreign language teacher's grammatical competence. 2021.
(6). https://consenses.app.

Abdurashidova Rushana Farhodovna (Toshkent davlat Pedagogika universiteti magistranti),

MNEMONIK TEXNIKALAR VA ULARNING OG'ZAKI VA YOZMA NUTIQNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqola mnemonik texnikalar va ularning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Nutq insonning fikrlash, o'z fikrini ifodalash va boshqalar bilan muloqot qilishning asosiy vositasi sanaladi. Og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda mnemonik texnikalarning samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi zamonaviy tadqiqotlar mnemonik texnikalarning o'quvchilarning xotirasini yaxshilashi, so'z boyligini oshirishi, nutq tuzilmalarini shakllantirishga yordam berishi va ijodiy fikrlashni rag'batlantirishi asoslab bermoqda. Umuman olganda, mnemonik texnikalarni o'qitish jarayoniga integratsiya qilish innovatsion ta'limda ijobiy samara beradi.*

Kalit so'zlar: *mnemonika, mnemonik texnikalar, nutq, xotira, kompetensiya, qobiliyat, ko'nikma, malaka, assotsiatsiyalar, akronimlar, joylashuv usuli, hikoya usuli.*

РОЛЬ МНЕМОНИЧЕСКИХ ТЕХНИК В РАЗВИТИИ УСТНОЙ И ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ

Аннотация. *В данной статье описаны мнемонические приемы и их значение в развитии устной и письменной речи. Речь является основным средством мышления, выражения своего мнения и общения с другими людьми. Эффективность мнемонических приемов имеет большое значение в развитии устной и письменной речи. Сегодняшние современные исследования доказывают, что мнемонические приемы улучшают память учащихся, увеличивают словарный запас, помогают формировать речевые структуры и стимулируют творческое мышление. В целом интеграция мнемонических приемов в учебный процесс положительно влияет на инновационное образование.*

Ключевые слова: *мнемотехника, мнемонические приемы, речь, память, компетентность, способность, умение, компетентность, ассоциации, аббревиатуры, метод локации, метод повествования.*

MNEMONICAL TECHNIQUES AND THEIR IMPORTANCE IN THE DEVELOPMENT OF ORAL AND WRITTEN SPEECH

Annotation. *This article describes mnemonic techniques and their importance in the development of oral and written speech. Speech is the main means of thinking, expressing one's opinion and communicating with others. The effectiveness of mnemonic techniques is of great importance in the development of oral and written speech. Today's modern research proves that mnemonic techniques improve students' memory, increase vocabulary, help form speech structures and stimulate creative thinking. In general, the integration of mnemonic techniques into the teaching process has a positive effect on innovative education.*

Key words: *mnemonics, mnemonic techniques, speech, memory, competence, ability, skill, competence, associations, acronyms, location method, narrative method.*

Kirish. Nutq insonning fikrlash, o'z fikrini ifodalash va boshqalar bilan muloqot qilishning asosiy vositasidir. O'quvchilarning nutqini rivojlantirish ta'lim sohasining muhim vazifalaridan biri hisoblanib, o'quvchilar nutqini rivojlantirishni jadallashtirishda turli metodlar va texnikalar foydalaniladi. Mamlakatimizdagi davlat siyosati, hukumat qarorlari va Bosh qomusimiz bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Davlat tili" hamda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlarda, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Taraqqiyot strategiyasi va boshqa me'yoriy hujjatlarda ta'lim sohasi, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya hamda til o'rganish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Zamonaviy taraqqiyot yoshlarda xorijiy tillarda, xususan, ingliz tilida ravon so'zlasha olish hamda zamonaviy kadr sifatida xalqaro maydondagi xorijiy mutaxassislar bilan fikr almasha olish qobiliyatlarini o'zida shakllantishni taqozo etmoqda. O'quvchilarga xorijiy tillarni o'rgatishda uning kommunikativ funksiyalari bilan cheklanib qolmasdan, til o'rganishning manbalari va texnologiyalarini ham o'rgatib borisi lozim. Hozirgi kunda o'quvchining qarashlari, maqsadlari, qiziqishlarini inobatga olgan holda, uning og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishda turli zamonaviy texnikalardan foydalanish ularning idrok etish qobiliyatini intensiv shakllanishiga yordam berishi mumkin. Yana shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, o'quvchilarda ko'p hollarda matnlarni yodlashda va o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelish holatlari kuzatiladi. Masalan, keng lug'atni eslab qolish, saqlash va murakkab til tuzilmalarini tushunishda qiyinchiliklar, ko'pincha, o'quvchilar uchun kerakli malaka darajasiga erishishda to'siq bo'lib qoladi. Shu sababli bu qiyin-

chiliklarni bartaraf etishda o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan innovatsion ta’lim usullaridan foydalanish ijobiy samara beradi.

Xorijiy tilning ko‘nikma va malakalarini o‘rganish jarayonida o‘quvchi qiyinchiliklarni yengish va tajriba orttirish kabi xususiyatlarni o‘zida shakllantirishi mumkin, bu esa o‘rganganlarini mustaqil va samarali takomillashtirish hamda kelajakda mavjud imkoniyatlardan muvaffaqiyatli foydalanishda xizmat qiladi. Xorijiy tillarni o‘zlashtirishda mnemonik qobiliyatlarni rivojlantirish texnikalarini egallash yaxshi samara beradi. Bunday texnologiyadan foydalanish xorijiy tillarni o‘rganish samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, xorijiy tillarni o‘qitishda interfaol usullardan foydalangan holda, konstruktiv fikr-mulohazalarni o‘quvchilarga yetkazishga yordam beradi. Shu nuqtayi nazardan, xotirani mustahkamlashga asoslangan va o‘rganish usuli bo‘lgan mnemonik texnikalar xorijiy tillarni intensiv o‘rganishda potensial yechim bo‘la olishi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan [2].

Xorijiy tillarni o‘qitishda mnemonik texnikalardan foydalanish usuli o‘quvchilarda eslab qolish qiyin bo‘lgan ma’lumotlar yoki eslab qolish osonroq, shuningdek, allaqachon ma’lum bo‘lgan ma’lumotlar o‘rtasida assotsiatsiyalar (aloqadorlik) yaratishga ko‘maklashadi. Umuman olganda, mnemonik texnikalar o‘quvchilarda xotirani yaxshilash va ma’lumotlarni eslab qolishga yordam beradigan zamonaviy innovatsion ta’lim usullaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili va metod (Materials and methods). Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, ta’lim hjarayonida mnemonik texnikalardan foydalanishdan maqsad o‘quvchilarda nafaqat operativ xotira hajmini rivojlantirish, balki ma’lumotni yodlash usullarini takomillashtirishdan iboratdir. Chunki chet tilini o‘zlashtirishda qiynalayotgan o‘quvchilarga mnemonik texnikalarni qo‘llash ularning xotirani yaxshilashga qaratilgan turli xil usullardan foydalanish amaliy natijaga erishishga yordam beradi. Qaysi yo‘nalishda bo‘lmasin, mnemonika ma’lumotlarni osonroq va samaraliroq eslab qolish uchun yordamchi vosita sifatida foydalanishga asoslangan.

Ba’zi tadqiqotlarida mnemonika quyidagicha ta’rif berilgan. “Mnemonika o‘xshashlik va bog‘liqlik asosida xotira hajmini kengaytirish va kerakli ma’lumotlarni eslab qolish uchun ishlab chiqilgan maxsus uslublar to‘plamidir. Bunda yangi noma’lum bo‘lgan tushunchalar inson ongida allaqachon ma’lum bo‘lgan ma’lumotlar bilan bog‘lanadi va natijada yangi ma’lumotni eslab qolish osonlashadi [3]. Masalan, yilning qaysi oylari ottiz birinchi va qaysilari ottizinchi kun ekanligi har doim ham insonning yodida turavermaydi. Bu dalilni o‘quvchilar mnemonikaning qofiya va qo‘shiq usuli yordamida osonlik bilan o‘rganib olishi mumkin:

Thirty days have **September**,
April, June and **November**,
All the rest have thirty-one;
February has twenty-eight alone”.

Shunday ekan, mnemonik texniklardan ma’lumotlar ro‘yxatini, yangi so‘zlarni, faktlarni va tushunchalarni esda saqlash uchun ijobiy samara beradi. Bugingi zamonaviy innovatsion ta’limda, asosan, mnemonikaning quyidagi usullaridan keng foydalaniladi: “Ilgaklar” yoki “kalit so‘zlar” – usuli yangi ma’lumotlarni eslab qolish uchun “ilgaklar” sifatida yaxshi tanish so‘zlar yoki obyektlardan foydalanishdir. Masalan, chet tilidagi so‘zlarni eslab qolish uchun ularni ona tilidagi o‘xshash tovushli so‘zlar bilan bog‘lashingiz mumkin.

Qisqartmalar va akrostikalar – bu boshqa so‘zlarning birinchi harflaridan tashkil topgan so‘zlar. Akrostikalar – bu har bir so‘z yodlangan ma’lumotlarning birinchi harfi bilan boshlanadigan iboralar. Ushbu usullar ro‘yxatlar yoki ketma-ketliklarni eslab qolish uchun juda yaxshi. Masalan, ingliz tilida kamalak rangini yodlash uchun «roygbiv» qisqartmasi ishlatiladi (qizil, to‘q sariq, sariq, yashil, ko‘k, indigo, binafsha).

Vizualizatsiya va rasm – bu ongda yorqin va batafsil rasmlarni yaratish, ma’lumotni tasvir sifatida taqdim etish. Ushbu tasvirlarni chizish ham xotirani mustahkamlashga yordam beradi. Masalan, tarixiy voqealarni eslab qolish uchun siz komiksni chizishingiz yoki asosiy fikrlar va belgilar bilan aqliy xaritani yaratishingiz mumkin.

Joylashuv usuli (Sitseron usuli) – usul tanish joyni tasavvur qilish va yodlangan ma’lumotlarning elementlarini ushbu joyning turli nuqtalariga joylashtirishga asoslangan. Bu usul “Rim xonasi usuli” yoki “saroy texnikasi” deb ham ataladi. Masalan, nutq qismlarini yodlash uchun siz yotoqxonangizni tasavvur qilishingiz va to‘shakda otlarni, stol ustidagi fe’llarni, javondagi sifatlarni va boshqalarni “joylashtirishingiz” mumkin [4].

1-rasm



Oydagi rasmda kunlar sonini barmoqlarda eslab qolish uchun mnemonik usullardan foydalanish texnikasi keltirilgan [5].

Mnemonik texnikanilarni qo‘llash biz uchun kerakli yakuniy natijaga erishish strategiyasi sifatida ko‘rib chiqiladi, chunki chet tilini o‘rganish jarayoni hozirda qayta ishlanishi va eslab qolishi kerak bo‘lgan ko‘plab ma’lumotlar bilan birga keladi. Har qanday ma’lumot va hodisalarni o‘rganib, muntazam ravishda o‘qib o‘rganish davom ettirilsa, inson xotirasining imkoniyatlari kengayib boraveradi. Keling, xotira haqidagi ma’lumotlarga bir nazar tashlasak, jumladan, “Inson miyasining potensiali odamlarga o‘z miya kuchlaridan maksimal darajada foydalanishni o‘rganishga yordam berdi. “Aql xaritasi kitobi” xotira borasidagi eng muhim va keng qamrovli kitobdir. Ma’lumotni o‘rganish, eslab qolish va yozib olish qobiliyatini tezlashtirish uchun barcha darajalarda fikrni rejalashtirish va tizimlashtirishda xotira, konsentratsiya va ijodkorlikdan foydalanish va takomillashtirishning qiziqarli yangi usullarini taklif etadi. Aql xaritasi va yorqin fikrlash–bu muallif tomonidan ko‘p yillar davomida ishlab chiqilgan aql-zakovatga kirishning ilg‘or usullari va bu yerda u miyasidan to‘liq foydalanishni istaganlar uchun to‘liq operatsion qo‘llanmani taqdim etadi. Bu hozirda transmilliy korporatsiyalar, yetakchi universitetlar, chempion sportchilar va taniqli rassomlar tomonidan ajoyib muvaffaqiyat bilan foydalanilayotgan jarayondir. Bir qator rag‘batlantiruvchi mashqlar va texnikani aks ettiruvchi to‘liq rangli fotosuratlar va original aql xaritalarining to‘plamidan iborat bo‘lib, u sizga qanday qilishni aniq ko‘rsatib beradi:

• Miyangizning idrok va assotsiatsiya modelini o‘rganish, fikrlash va yaratish yo‘llarida aks ettiring va kattalashtiring.

• Eslatmalar olish, nutq, yozish topshirig‘i, hisobot tayyorlashning to‘g‘ri usulini tezda o‘zlashtiring

• Samarali fikrlash uchun boshqalar bilan qo‘shiling, katta hajmdagi ma’lumotlarni yodlang, o‘z g‘oyalaringizdan ozod bo‘ling va doimiy ravishda chuqur va kengayib boradi” [6].

Xotira bu inson tanasining asab tizimining axborotni idrok etish, saqlash va ko‘paytirish xususiyatidir. Xotira – bu miyaning ma’lumotni qabul qilish, saqlash, keyinchalik, eslab qolish qobiliyati. Bu juda murakkab jarayon bo‘lib, turli xil miya tuzilmalari va jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Xotira faqatgina ma’lumotlarni saqlash emas, balki ularni qayta ishlash, tashkil etish va chaqirishni ham o‘z ichiga oladi. ”Xotira - bu insonning eng qadimgi dushmaniga qarash. Psixolog Elizabeth Loftus bizga nafaqat xotiraning ishlashi haqida, balki xotira nima uchun noto‘g‘ri qobiliyat, haqiqat uchun, ko‘pincha, ishonchsiz manba ekanligini ham aytadi. U xotiraning ko‘p o‘lchovlarini chuqur tahlil qiladi va bu topilmalarning oqibatlarini turli kontekstlarda muhokama qiladi va unutish bilan kurashish bo‘yicha aniq maslahatlar beradi. Loftus xotira ishonchliligi va uning manipulatsiyasi haqida ko‘plab tadqiqotlar olib borgan. Bu asar xotira va mnemonika usullari haqida muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi” [7].

Muhokama (Discussion). Mnemonik texnikalar ma’lumotlarni eslab qolish va ularni xotirada saqlash imkoniyatini oshiradi. Shu bilan bir qatorda, undan foydalanish diqqatni ma’lumotga jam-lashga yordam beradi. Uni tildan tortib, fan, tarix va boshqa sohalarga qadar ko‘plab sohalarda qo‘llash mumkin. Mnemonik texnikalar xotirani kuchaytirishning samarali va qiziqarli usulidir. Shuningdek, ular ma’lmotlarni oson eslab qolishga yordam beradi, o‘rganishni osonlashtiradi, ijodiy fikrlashni rivojlantiradi va diqqatni jamlashga yordam beradi. Zero, mnemonik texnikalar nutq rivojlanishida ko‘p ishlatilsa, u yangi so‘zlarni eslab qolishni osonlashtirib, o‘quvchilarning so‘z boyligini oshiradi. Xotirani mustahkamlaydi va ma’lumotlarni uzoq muddatli xotirada saqlashga yordam beradi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarning nutqida so‘zlarni tez va to‘g‘ri ishlatishiga imkon beradi. Mnemonikaning asosiy tamoyillari takrorlash, aniq vizualizatsiya, mazmunli assotsiatsiyalardan foydalanish va axborotda naqsh yoki tuzilmalarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Uni turli kontekstlarda, ayniqsa ta’lim sohasida samarali ekanligi isbotlanmoq-

da. Ulardan foydalanish, ayniqsa, ilmiy kontekstlarda tez-tez uchrab turadigan faktlar, sanalar, ismlar, tillar va boshqa tushunchalarni yodlashda foydalidir. Empirik tadqiqotlar esa shuni ko'rsatadiki, mnemonika, ayniqsa, takrorlash kabi an'anaviy o'rganish usullari bilan solishtirganda, ma'lumotni saqlash va qayta tiklashni yaxshilashi mumkin. Mnemonik texnikalardan foydalanish o'quvchilarning nutqini rivojlantirishda sezilarli natijalarga olib keladi. Masalan, yana bir tadqiqotlardan, mnemonik usullardan foydalangan o'quvchilar oddiy usullar bilan o'rganadigan o'quvchilarga nisbatan yangi so'zlarni ancha yaxshi eslab qolgan. Bundan tashqari, mnemonik texnikalardan foydalangan o'quvchilarning yozma nutqi ham ravon va mazmunli bo'lgan. Darhaqiqat, mnemonikalar orqali esda qolgan so'zlar va iboralar nutq tuzilmalarining shakllanishiga yordam beradi.

Xulosa (Conclusion). Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, mnemonik texnikalar o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular so'z boyligini oshirish, fikrni aniq ifodalash, nutq ravonligini yaxshilash, yozma nutqda xatolarni kamaytirish va ijodiy yozishga rag'batlantirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonida mnemonik texnikalardan oqilona foydalanish o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Zero, ta'kidlaganimizdek, mnemonik texnikalar xotirani kuchaytirishning eng samarali va qiziqarli usulidir. Ular ma'lumotlarni oson eslab qolishga yordam beradi, o'rganishni osonlashtiradi, ijodiy fikrlashni rivojlantiradi va diqqatni jamlashga yordam beradi. Ular nafaqat ma'lumotlarni eslab qolishni osonlashtiradi, balki muloqot jarayonini samarali qiladi va ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi. O'qituvchilar va talabalarga mnemonik texnikalardan foydalanishni o'rganish, ularning nutq ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Shunday qilib, mnemonik texnikalar ta'lim jarayonida muhim vosita sifatida xizmat qiladi va kelajak avlodlarning nutq madaniyatini oshirishda katta rol o'ynaydi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). "Har bir bitiruvchi kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishi shart". https://www.gazeta.uz/oz/2021/05/06/videoselector/O'zbekiston

(2). Abduraimova Sh., Muydinov S. Mnemonika (yod olish san'ati). Toshkent, "Akademnashr", 2020, 128-bet.

(3). Shohruh-Mirzo Rahmanov va Iskandar Sattibayev. So'z yodlash sirlari, Toshkent. "Istiqlol nuri" nashriyoti, 2025, 124-bet.

(4). Мнемотехника для развития памяти. Интересные и полезные методы для школьников. https://oxbridgeschool.uz/mnemonika-xotirani-rivojlantirish-uchun/?lang=uz

(5). Mnemonika. https://uz.wikipedia.org/wiki/Mnemonika

(6). "The Mind Map Book: How to Use Radiant Thinking to Maximize Your Brain's Untapped Potential Paperback" – Illustrated, March 1, 1996 by Tony Buzan (Author), Barry Buzan (Author).

(7). "Memory: Surprising New Insights into How We Remember and Why We Forget – Hardcover" Elizabeth F.Loftus Addison-Wesley; First Edition (January 1, 1980).

Rahimova Sarvinoz Sadiq qizi (Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti; sarvinozrahimovaa@gmail.com)

MARKAZIY OSIYO MUTAFFAKKIRLARINING BOSHQARUV MASALALARIDAGI NAZARIY QARASHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mutafakkirlarining boshqaruv masalalariga oid nazariy qarashlari tahlil qilingan. Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy kabi allomalarning boshqaruv tamoyillari, rahbarlik fazilatlari va ijtimoiy adolat haqidagi fikrlari zamonaviy boshqaruv konsepsiyalari bilan solishtirilib o'rganilgan. Maqolada tarixiy qarashlarning bugungi boshqaruv tizimlariga ta'siri va ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Forobiy, Navoiy, boshqaruv nazariyasi, adolat, rahbarlik, tarixiy meros, Sharq mutafakkirlari.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ НА ВОПРОСЫ УПРАВЛЕНИЯ

Аннотация. *В статье анализируются теоретические взгляды мыслителей Центральной Азии на вопросы управления. Рассматриваются идеи Абу Насра Фараби, Ибн Сины, Бахауддина Накшбанди и Алишера Навои о принципах управления, качествах лидера и социальной справедливости. Также раскрывается значение этих идей для современных концепций управления.*